

JAZO TAYINLASHDA OG'IRLASHTIRUVCHI HOLATLAR: NAZARIYA VA AMALIYOT

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19639226>

Omonova Dilfo'za Shuxrat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi amaliyoti mutaxassisligi Magistratura talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 56-moddasida nazarda tutilgan jazoni og'irlashtiruvchi holatlar instituti har tomonlama ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif og'irlashtiruvchi holatlarning huquqiy tabiati, ularning kvalifikatsiya qiluvchi belgilardan farqlanishi, umumiy va maxsus og'irlashtiruvchi holatlar tizimi yoritadi. Shuningdek, jazoni og'irlashtiruvchi holatlarning sud amaliyotida qo'llanish xususiyatlari, takroran va retsidiv jinoyat sodir etish, aybga iqrorlik va pushaymonlikning jazo tayinlashga ta'siri masalalari atroflicha tahlil etilgan. Maqolada xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy-huquqiy jihatdan o'rganilgan hamda 2025-yilda narkojinoyatlarga oid qonunchilikka kiritilgan so'nggi o'zgarishlar tahlil qilingan. Xulosa qismida og'irlashtiruvchi holatlarni to'g'ri aniqlash va qo'llash adolatli jazo tayinlashning muhim kafolati ekanligi, jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

jazoni og'irlashtiruvchi holatlar, jinoyat kodeksi, jazoni individualizatsiyalash, kvalifikatsiya qiluvchi belgilar, retsidiv, takroran jinoyat, qasddan odam o'ldirish, uyushgan guruh, narkojinoyatlar, sud amaliyoti.

Аннотация

В данной статье всесторонне, с научно-теоретической и практической точек зрения анализируется институт обстоятельств, отягчающих наказание, предусмотренных статьей 56 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. Автор раскрывает правовую природу отягчающих обстоятельств, их отличие от квалифицирующих признаков, а также систему общих и специальных отягчающих обстоятельств. Кроме того, подробно анализируются особенности применения отягчающих обстоятельств в судебной практике,

вопросы влияния совершения повторного и рецидивного преступления, признания вины и раскаяния на назначение наказания. В статье на сравнительно-правовой основе изучен и проанализирован опыт зарубежных стран. В заключительной части обосновывается, что правильное установление и применение отягчающих обстоятельств является важной гарантией назначения справедливого наказания и имеет значение для повышения эффективности борьбы с преступностью.

Ключевые слова

отягчающие наказание обстоятельства, уголовный кодекс, квалифицирующие признаки, рецидив, повторное преступление, умышленное убийство, организованная группа, наркопреступления, судебная практика.

Annotation

This article provides a comprehensive scientific-theoretical and practical analysis of the institution of aggravating circumstances provided for in Article 56 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. The author elucidates the legal nature of aggravating circumstances, their distinction from qualifying features, as well as the system of general and special aggravating circumstances. Furthermore, the article thoroughly examines the specifics of applying aggravating circumstances in judicial practice, the impact of committing repeated and recidivist crimes, pleading guilty and repentance on sentencing. The experience of foreign countries is studied and analyzed from a comparative legal perspective. The conclusion substantiates that the correct identification and application of aggravating circumstances is an important guarantee of fair sentencing and is significant for increasing the effectiveness of crime control.

Keywords

aggravating circumstances, criminal code, qualifying features, recidivism, repeated crime, intentional murder, organized group, drug crimes, judicial practice.

Dolzarbligi. Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazoning to'g'ri tayinlanishi – odil sudlovning muhim kafolatidir. Har qanday huquqiy davlatda sodir etilgan jinoyat uchun adolatli va asosli jazo tayinlanishi huquq tizimi faoliyatining asosiy elementidir. Muayyan shaxsning taqdiri, shuningdek, aholining sud-huquq tizimiga bo'lgan ishonchi va jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligi sud tomonidan jinoiy jazo chorasini qanchalik to'g'ri va mutanosib ravishda belgilashiga bog'liq.

Ko'rib chiqilayotgan mavzuning dolzarbligi bir qator omillar bilan belgilanadi. Avvalo, jinoyat qonunchiligi va sud tizimining doimiy rivojlanishi sharoitida sud qarorlarining bir xilligini ta'minlash zarurati, ayniqsa, yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni baholash va qo'llash masalalarida kuchaymoqda. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, aniq mezonlarning yo'qligi o'xshash jinoyatlar uchun jazo tayinlashda sezilarli farqlarga olib keladi, bu esa aholining sud tizimiga ishonchini susaytiradi. Jinoyat ish yuritishda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni qo'llash muammosini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammo bo'lib, uning yechimi jinoyat-huquqiy mexanizm faoliyati samaradorligini va sud-huquq tizimiga ishonch darajasini belgilaydi.

Bugungi kunda jazoning adolatli tayinlanishi masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Og'irlashtiruvchi holatlar ana shu jarayonning markaziy elementlaridan biri hisoblanadi. Og'irlashtiruvchi holatlarni kvalifikatsiya qiluvchi belgilardan farqlash, ularning bir-biri bilan qo'shilish qoidalari, takroran hisobga olinmaslik prinsiplari kabi masalalar jinoyat huquqi nazariyasida hanuz to'liq hal etilmagan bo'lib, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etadi. Og'irlashtiruvchi holatlar instituti jinoyat huquqining Umumiy va Maxsus qismlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettiradi. Shu sababli, ushbu bog'liqlikni tizimli o'rganish jinoyat huquqining jazo tayinlash tizimi yaxlitligini ta'minlaydi, kvalifikatsiya qiluvchi belgilar bilan og'irlashtiruvchi holatlar o'rtasidagi chegaralarni aniq belgilashga xizmat qiladi. Aynan bu holatlarning chuqur tatqiq etilishi, sud amaliyotida yagona standartlar shakllanishiga hamda adolatli jazo tayinlash tizimi rivojlanishiga yordam beradi.

Kirish. Inson hayoti va huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan bo'lib, yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi hisoblanadi. Ushbu huquqqa tajovuz qilish eng og'ir jinoyat sifatida baholanadi²². Aynan bosh qomusimizda insonning yashash huquqi shuningdek, boshqa huquqlarini himoya qilishga qaratilgan juda ko'plab normalar mavjud bo'lib, bugungi kunda har bir davlat organlari va mansabdor shaxslar fuqarolarning huquq erkinliklarini ta'minlashga ma'sul hisoblanadi. Mustaqil tarzda faoliyat yuritayotgan sudlar ham fuqarolarning huquqlarini poymol etilishini oldini olish va ularning buzilgan huquqlarini tiklash qonuniy choralor ko'rmoqda.

²² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 25-modda.

Jinoyat huquqining asosiy tamoyillaridan biri – adolatli jazo tayinlash bo‘lib, bu jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga, aybdorning shaxsiga, shuningdek jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarga muvofiq bo‘lishini taqozo etadi²³. Jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar instituti jinoyat huquqining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, sudya tomonidan aybdorga nisbatan adolatli jazo tayinlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (JK) 56-moddasida nazarda tutilgan og‘irlashtiruvchi holatlar tizimi, ularning huquqiy tabiati, kvalifikatsiya qilish xususiyatlari va sud amaliyotida qo‘llanish masalalari atroflicha tahlil qilinadi.

Tatqiqot natijalari. Jazo ta‘yinlash jinoiy huquqiy muhofazaning bir qismi sifatida, shaxslar munosabatlarini muhofaza qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu institutning ahamiyatli jihati shundaki, jazo tizimi davlatning jinoiy-huquqiy muhofaza tadbirlarini ta‘minlovchi asosiy unsuri hisoblanadi.

Bundan tashqari, asoslangan jazo ta‘yinlash qonuniylik, fuqarolarning xavfsizligi va konstitutsiyaviy huquqlarning himoyalaniishining muhim qismi bo‘lib, inson huquqlari sohasida demokratik institutlarning rivoj topishida ishonchli kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi davrdagi demokratik yangilanishlardan biri qonun ustuvorligini mustahkamlash, shaxslarning huquqlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimining izchil demokratlashtirishidir. “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” 60-sonli Prezident farmonining 14-maqsadi jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoiy-ijroiya qonunlarni takomillashtirish, jinoiy jazolar va ularning ijrosi tizimiga insonparvarlik tamoyillarini keng joriy etishni nazarda tutadi. Shuningdek, 2018-yil 14-mayda qabul qilingan “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonun tizmasini takdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3723-sonli Prezident Qarorining kontsepsiyasining 2.3-bandi²⁴, jazolar tizimi va ularni ta‘yinlash mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish, eskirgan va zamon talablariga javob bermaydigan jazolarni bekor qilish belgilab berilgan.

Aybdor shaxsga adolatli jazo ta‘yinlash juda muhim. O‘zbekiston Respublikasining jinoiy-protsessual kodeksi, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-ijroiya kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son Qarori, sudlar tomonidan jinoyatlar uchun jazo ta‘yinlash amaliyoti

²³ Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y.

²⁴ https://nrm.uz/contentf?doc=542818_o'zbekiston_respublikasi_prezidentining_14_05_2018_y_pq-3723-son_jinoyat_va_jinoyat-processual_qonunchiligi_tizimini_tubdan_takomillashtirish_chora-tadbirlari_to'g'risidagi_qarori

to'g'risidagi plenum qarori va boshqa me'yoriy huquqiy hujatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, ushbu tadqiqotga bir oz yordam beradi. Yuqoridagi masalalarning yechimini topish, birinchi navbatda, qonun hujjatlarini tahlil qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni talab etadi, va buning orqali jazo ta'yinlashdagi muammolar hal qilinadi. Mazkur masalalar tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va uning ilmiy va amaliy yo'nalishini tasdiqlaydi.

Og'irlashtiruvchi holatlar tushunchasi jinoyat sodir etilishining obyektiv va subyektiv jihatlarini tavsiflovchi, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiruvchi va sudning aybdorga nisbatan qonun sanksiyasida belgilangan jazoning og'irroq turini yoki uning ko'proq miqdorini qo'llash imkonini beruvchi qonunda belgilangan holatlardir²⁵. Og'irlashtiruvchi holatlar jinoyat tarkibining ajralmas elementi hisoblanmaydi, balki, bu jinoyatning xususiyati va og'irligini tavsiflovchi hamda jazoni individualizatsiyalash uchun asos bo'luvchi holat sanaladi. Jinoyat huquqida og'irlashtiruvchi holatlarning bir ahamiyatli tomoni mavjud bo'lib, aynan og'irlashtiruvchi holat sifati jinoyat qonunchiligida holatlarga sudlar tomonidan og'irlashtiruvchi holat sifatida jazo tayinlashda inobatga olinadi. Sudlar tomonidan JKning 56-moddasida nazarda tutilmagan holatlar og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanishda qonun yo'l qo'ymaydi. Shu sababli ham hozirgi jinoyat qonunchiligida og'irlashtiruvchi holatlar doirasi ancha kam. Bu esa jazo tizimining yanada liberalligini va qonuniy asoslarga ega ekanligini ko'rsatadi. Jinoyat huquqi nazariyasida og'irlashtiruvchi holatlarni kvalifikatsiya qiluvchi belgilardan farqlash muhim ahamiyatga ega. Huquqshunos olim M.X. Rustamboyevning ta'kidlashicha, kvalifikatsiya qiluvchi va og'irlashtiruvchi holatlar jinoyat tarkibining umumiy elementlari bilan bog'liq bo'lib, har bir bunday holat jinoyatning obyekti, obyektiv tomoni yoki subyektivni tavsiflovchi xususiyatlarni tubdan o'zgartiradi²⁶. Agar biror holat Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddasida kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida nazarda tutilgan bo'lsa, u takroran jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi mumkin emas. Bunga asos shundaki, bir jinoyat uchun qayta-qayta shaxslarning holatini va jazoni og'irlashtirish insonning huquq va manfaatlariga zid hisoblanadi.

Oliy sud Plenumining tushuntirishiga ko'ra, JKning 56-moddasida ko'rsatilgan holatlar, agar ular jinoyat tarkibining belgisi sifatida nazarda tutilgan bo'lsa, jazoni og'irlashtiruvchi holat deb sanalishi mumkin emas²⁷. Agar og'irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutilgan belgilar JKning maxsus qismida

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 54-modda. – T.: Adolat, 2024.

²⁶ Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik. – T.: TDYU, 2023. – B. 289.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar tomonidan jazoni tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi 2004-yil 18-dekabrda 20-sonli qarori, 12-bandi.

nazarda tutilgan jinoyatning tarkibiy belgisi sifatida belgilangan bo'lsa, u holatda jazo tayinlashda qo'shimcha JKning 56-moddasida nazarda tutilgan o'g'irlashtiruvchi holatlar inobatga olinmaydi.

Og'irlashtiruvchi holatlar ikki asosiy guruhga bo'linadi:

Umumiy og'irlashtiruvchi holatlar - Jinoyat kodeksining Umumiy qismi 56-moddasida belgilangan va barcha turdagi jinoyatlarga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan holatlar. Ushbu o'g'irlashtiruvchi holatlar barcha jinoyatlar uchun umumiy bo'lib, shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatning tarkibi va belgilariga, jinoyat sodir etgan shaxslarni inobatga olgan holda jazo tayinlashda juda katta ahamiyatga ega.

Maxsus og'irlashtiruvchi holatlar -Jinoyat kodeksining Maxsus qismi tegishli moddalari tarkibiga kiruvchi va faqat ayrim jinoyat turlariga xos bo'lgan holatlar. Bunda og'irlashtiruvchi holat jinoyat tarkibining bir belgisi sifatida namoyon bo'ladi hamda Maxsus Qismida nazarda tutilgan moddaning ajralmas tarkibiy qismi sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 56-moddasida jazoni og'irlashtiruvchi holatlarning qat'iy belgilangan ro'yxati keltirilgan. Ushbu ro'yxat to'liq bo'lib, sud tomonidan kengaytirilishi mumkin emas. Ammo ahamiyatlisi shundaki, yengillashtiruvchi holatlar sudlar tomonidan shaxsga, uning holati, jinoyat sodir etilishi bilan bog'liq jihatlari o'rganilgan holda JKda nazarda tutilgan yengillashtiruvchi holatlardan boshqa holatlarni ham yengillashtiruvchi holat sifatida baholashi mumkin hamda jazo tayinlashda ayblanuvchiga nisbatan yengilliklar berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 56-moddasida keltirilgan og'irlashtiruvchi vaziyatlar ro'yxati qat'iy ravishda tartiblangan bo'lib, boshqa turlardagi vaziyatlarni og'irlashtiruvchi omil sifatida qarashga yo'l qo'yilmasligiga asos bo'ladi.

Agar aybdor ayolning homiladorligi haqida bilgan holda jinoyat sodir etsa, bu Jinoyat kodeksining 56-moddasida qayd etilgan holatlarga qo'shiladi. Homilador ayolga hujum qilgan shaxs, homilaning rivojlanishi hamda rivojini buzgan bo'ladi. Homilador ayolni salbiy ta'sirlardan muhofaza qilish jarayonida faqat ayolni emas, balki homilaga ham ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida hujumni yangi ijtimoiy oqibatlari vujudga keladi va bu aybdorning javobgarligini og'irlashtiradi. Agar aybdor jabrlanuvchining homiladorligini bilgan va anglagan bo'lsa, u holda ham jinoyatni sodir etgan bo'lsa, bu hol jazoni og'irlashtiruvchi sifatida baholanadi. "Sud amaliyotida ushbu holatni qo'llashda aybdorning jabrlanuvchining homiladorligini bilganligi (tashqi belgilar va boshqa faktik ma'lumotlar mavjudligi) aniqlangan bo'lishi talab etiladi. Homiladorlik muddati, shuningdek, homilador

ayol o'ldirilishi natijasida uning homilasi nobud bo'lgan-bo'lmaganligi kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas²⁸". Ushbu Plenum qarori tushuntirishiga ko'ra, jinoyat sodir etgan shaxs jabrlanuvchining homiladorligini bilgan va anglagan holatda jinoyatni sodir etgan bo'lishi lozim. Sudlar aynan mana shu holatga katta ahamiyat qaratishlar belgilangan. Shuningdek, ushbu og'irlashtiruvchi holatni jazo tayinlashda qo'llash uchun sodir etilgan jinoyat natijasida homilaning nobud bo'lishi yoki bo'lmasligiga e'tibor qaratilmaydi. Ya'ni sodir etilgan jinoyat natijasida homila nobud bo'lmasa ham jazo tayinlashda jinoyat sudlari tomonidan og'irlashtiruvchi holat sifatida baholandi.

Shuningdek, jinoyatni voyaga yetmaganlarga, keksa yoshdagi shaxslarga yoki yordamga muhtoj shaxslarga nisbatan sodir etilishi jinoyat qonunchiligiga asosan og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi²⁹. Yosh bolaga, keksa yoki ojiz kishilarga nisbatan qilingan jinoyatlar og'irlashtiruvchi holatlardan biri hisoblanadi, yosh bola deganda o'n to'rt yoshga to'lgan bolalar va o'smirlarni tushunish lozim. Qariyalar deganda pensiya yoshiga etganlarni tushunish kerak. Ojiz holatdagi shaxslar deganda, yoshi kattaligi, kasalligi, jismoniy nuqsoni yoki boshqa sabablar bilan jinoyatkorga qarshilik ko'rsata olmaydigan shaxslarni (masalan: uxlab yotgan shaxs) tushunish zarur.

Xizmat vazifalarini yoki fuqarolik burchini bajarish bilan bog'liq bo'lgan shaxs yoki uning yaqin qarindoshlariga qaratilgan jinoyat, Jinoyat kodeksining 56-moddasi 1-qismining "v" bandida, jazoni og'irlashtiruvchi omil sifatida qaraladi.

O'z xizmat burchini bajarish deganda, istalgan shaxsning o'z vazifasidagi huquqlarini qonuniy tarzda amalga oshirishi, jamoat burchi deganda, fuqaroning o'ziga yuklangan ijtimoiy burchlarini, jamiyat yoki ayrim shaxslar manfaatlari, jinoyatchilikning oldini olish, sodir etilgan yoki sodir etilayotgan jinoyatlar haqida hokimiyatga xabar berish kabi vazifalarini amalga oshirishi tushuniladi.

Shaxsning yaqin qarindoshlariga, ota-onalar, aka-ukalar, er-xotinlar, farzandlikka olinganlar, nabiralar, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillarini misol qilib aytish mumkin.

Jinoyat kodeksining 56-moddasi 1-qismining "g" bandida qaralgan, moddiy, xizmat yoki boshqacha qaramlikdagi shaxsga qaratilgan jinoyatlar ham jazoni kuchaytiruvchi holat hisoblanadi.

Agar jabrlanuvchi haqiqatan ham aybdorning qaramog'ida bo'lsa yoki uning yordami jabrlanuvchining yashash uchungina manbai bo'lsa, moddiy qaramlik

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Qasddan odam o'ldirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2003-yil 12-dekabrda 19-sonli qarori, 24-bandi

²⁹ Jinoyat kodeksi, 56-modda 2-bandi

mavjud bo'ladi. Nikoh munosabatlari ham bunday bog'lanishni vujudga keltiradi. Moddiy qaramlik shaxsning majburiyatlari (masalan, aliment) yoki er-xotin o'rtasidagi murakkab munosabatlar (boshqa shahardan kelgan qarindoshni uy-joy va oziq-ovqat bilan ta'minlash) bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Xizmat bo'yicha qaramlik shaxsning xizmatga bo'ysunishi bilan bog'liq bo'ladi, va bu uning mehnati yoki o'qishi ustidan nazorat qilib borish vazifasi bilan bog'liq (masalan, xodim va rahbar).

Boshqa qaramlik deganda, jabrlanuvchi aybdorning uy-joyida yashashi, o'quvchilarning yoki tarbiyalanuvchilarning vasiylarga bog'liqligini tushunish kerak.

Guruh tarkibida bir-birini qo'llagan holda, jinoyat uyushmasi tomonidan sodir etilgan jinoyat ham jazoni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Birgalikda qilingan jinoyat juda xavfli bo'lib, unda jinoyatni amalga oshirish va jinoyat izlarini yashirish oson kechadi.

Ayniqsa, jinoiy faoliyatning uyushganlik xususiyati ijtimoiy xavflilikni oshiradi. Bu yerda gap guruh xususida emas, uyushgan guruh haqida bormoqda. Uyushgan guruh faqatgina son miqdori bilan cheklanmaydi (ikki yoki undan ortiq shaxslar), shuningdek, oldindan kelishib olish, jinoyat rejasini tuzish, uning amalga oshirilishiga tayyorgarlik ko'rish, guruh ishtirokchilari o'rtasida mustaxkam aloqa mavjudligi bilan ham izohlanadi.

Jinoiy uyushmaning xavfli oqibatlari ikki va undan ortiq jinoiy guruhlarning birgalashib jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishidir. Bunday birlashish uyushgan tuzilmaning faolligini oshiradi, bu esa ularning kuchini oshiradi hamda ta'sir doirasini kengaytiradi.

"Og'ir oqibatlarga olib kelgan jinoyatlar jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanadi, chunki oqibatning og'irligi hujumning doirasidan tashqariga chiqadi. Masalan, oilaning yagona boquvchisining o'ldirilishi uning moddiy holatini juda yomonlashtiradi³⁰". Qonunga muvofiq, jinoyatning mohiyatiga qarab, mastlik jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida qaralmasligi ham mumkin, chunki bu holatni yechishda qilmish o'z tabiatidan mastlik yoki aybdorning aqliy-irodaviy faoliyatiga ta'sir etadigan giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki boshqa moddalar bilan bog'liqligini, shuningdek, shaxsning bu holatga tushish sharoitini batafsil o'rganishni va ularni hisobga olishni talab etadi.

Umumiy ofat sharoitidan foydalangan holda jinoyat sodir etishda, aksariyat insonlarning hayoti yoki sog'lig'iga tahdid soladigan yoki davlat, jamoat yoxud

³⁰ The Attorney General's Office Consultation. The Introduction of a Plea Negotiation Framework for Fraud Cases in England and Wales. 3 April 2008.

shaxsiy mulkka katta miqdorda zarar yetkazadigan ofatlar, yong'in, transport halokatlari, suv toshqinlari va boshqa holatlar nazarda tutiladi. Ushbu vaziyatlarni jazoni og'irlashtiruvchi omil sifatida etirof etish uchun aybdorning ulardan ongli ravishda foydalanishi maqsadi mavjud bo'lishi kerak.

Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar – jinoyat sodir etilgan sharoit yoki aybdor shaxsning xususiyatlari natijasida jazo og'irligini orttirishga asos bo'ladigan huquqiy mezonlar majmuasidir. Ularning majmui O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 56-moddasida aniq va doirasi tugallangan holda belgilangan (masalan, yosh bola, qariya yoki ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan sodir etish, o'ta shafqatsizlik bilan yoki xizmat mavqeidan foydalanib jinoyat sodir etish va boshqalar)

Sud bu holatlarning har birini aniqlab, hukmda batafsil asoslash majburiyatiga ega; agar modda doirasidagi holat e'tiborga olinmasa, buning sababi yozma ravishda bayon qilinishi shart

Shu tariqa, og'irlashtiruvchi holatlar instituti adolatlilik, individualizatsiya hamda jinoyat va jazo mutanosibligini ta'minlash prinsiplariga xizmat qilib, jinoyat huquqida og'irroq jazo qo'llanishi zarur bo'lgan vaziyatlarni aniq belgilaydi.

Sud amaliyotida og'irlashtiruvchi holatlarni qo'llashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratiladi:

1. Og'irlashtiruvchi holatlarni kvalifikatsiya qiluvchi belgilardan farqlash;

2. Har bir og'irlashtiruvchi holatning mavjudligini ish materiallari asosida asoslash;

3. Retsidiv va takroran jinoyat sodir etishni hisobga olishda qonun talabalariga rioya qilish;

4. Aybga iqrorlik va pushaymonlik kabi yengillashtiruvchi holatlarni og'irlashtiruvchi holatlar bilan birgalikda baholash. So'nggi yillarda narkojinoyatlarga qarshi kurashish maqsadida qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar og'irlashtiruvchi holatlar institutining dolzarbligini yana-da oshirmoqda. Ayniqsa, voyaga yetmaganlarni narkojinoyatlarga jalb qilish, ta'lim muassasalari yaqinida giyohvandlik vositalarini o'tkazish kabi holatlar qat'iy og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilanmoqda. jazoni og'irlashtiruvchi holatlarni to'g'ri aniqlash va qo'llash adolatli jazo tayinlashning muhim kafolati bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qonunchilikdagi og'irlashtiruvchi holatlar ro'yxati ularning jinoyat tarkibidagi kvalifikatsiya qiluvchi belgilar bilan takrorlanmasligiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bu esa jinoyat huquqining tizimlili va izchilligini ta'minlashning muhim shartidir.

Xorijiy davlatlar tajribasi. Turli mamlakatlarning jinoyat qonunchiligida og'irlashtiruvchi holatlar turlicha tartibga solingan. Masalan, Norvegiya Jinoyat kodeksida yengillashtiruvchi holatlar sanab o'tilgan bo'lib, biroq og'irlashtiruvchi holatlar uchun qat'iy ro'yxat belgilanmagan. Bu holatlarni hisobga olish vakolati faqat sudga berilgan³¹. Norvegiya qonunchiligida ayrim maxsus qism moddalarida og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lganda qancha jazo tayinlanishi aniq ko'rsatib qo'yilgan. Masalan, "Agar tuzilma yoki uning a'zolari qurol-yarog', portlovchi moddalarga ega bo'lsa, 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar jalb qilingan bo'lsa yoki boshqa og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lsa, olti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi³²" – degan norma shular jumlasidandir.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 63-moddasida jazoni og'irlashtiruvchi holatlar keltirilgan. Rossiya qonunlarida "g" bandida jinoyatni sodir etishdagi faol rol ko'zda tutilgan. Bu - jinoyat ishlarida sheriklik bilan bog'liq, lekin og'irlashtiruvchi jazo sifatida hisoblash uchun jinoyatchining faol ishtiroki talab etiladi. Buni jinoyatni tayyorlash va amalga oshirishda har qanday sherikning faol harakatlari deb tushunish mumkin. Shuningdek, bu moddaning "d" bandi mastlik holatidagi shaxsdan foydalanib jinoyat sodir etishni og'irlashtiruvchi holat sifatida ko'rsatadi. Novosibirsk davlat texnika universitetining yuristik fakulteti talabasi S.D.Jambalovaning ta'kidlashicha, mastlik darajasi jinoyatchining o'z ixtiyoriga nisbatan ta'sir qilishidek bo'lishi kerak³³. Shuningdek, Jazo tayinlash tizimida og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga olish turli davlatlarda turlicha. Masalan, AQSHda jazo tayinlashda kodifikatsiya qilingan darajalar sudga oldindan aniq mezonlarni beradi, Buyuk Britaniyada esa jamoatchilik ishtiroki ko'rsatmalar asosida og'irlashtiruvchi holatlar doimiy yangilab turishni ta'minlanadi, Germaniyada esa gumanistik va tiklovchi yondashuvlar jazoni faqat jazolash emas, balki aybdorni ijtimoiy qayta moslashuviga ham yo'naltiradi.

Xulosa. Jazo tayinlashda jazoni og'irlashtiruvchi holatlarni to'g'ri qo'llash jinoyat huquqining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, adolatli jazoni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, amaliyotda ushbu holatlarni baholashda bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, ayrim hollarda sudlar tomonidan og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarning noto'g'ri yoki bir-biriga zid talqin qilinishi, ularni yetarlicha asoslanmagan holda e'tiborga olinishi adolatga putur yetkazishi mumkin.

³¹ Norvegiya Jinoyat kodeksi / Tarjimon A. Karimov. – T.: Adolat, 2022. – B. 45.

³² Norvegiya Jinoyat kodeksi / Tarjimon A. Karimov. – T.: Adolat, 2022. – B. 47

³³ Жамбалова С.Д. Курсовая работа по уголовному праву "Обстоятельства, отягчающие наказание" Новосибирск – 2010.

Bunday muammolarni bartaraf etish uchun qonunchilikni yanada takomillashtirish, sudyalarning malakasini oshirish, sud amaliyotida bir xillikni ta'minlash va jinoyat-huquqiy siyosatni insonparvarlik tamoyili asosida yuritish muhimdir. Jazo tayinlashda holatlarning har tomonlama va adolatli baholanishi jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligini oshirish bilan birga, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 25-modda.
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi,- T.: Adolat, 2024.
4. https://nrm.uz/contentf?doc=542818_o'zbekiston_respublikasi_prezidentining_14_05_2018_y_pq-3723-son_jinoyat_va_jinoyat-processual_qonunchiligi_tizimini_tubdan_takomillashtirish_chorataadbirlari_to'g'risidagi_qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar tomonidan jazoni tayinlash amaliyoti to'g'risida" gi 2004-yil 18-dekabrda gi 20-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Qasddan odam o'ldirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" gi 2003-yil 12-dekabrda gi 19-sonli qarori.
7. Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik. - T.: TDYU, 2023. - B.
8. The Attorney General's Office Consultation. The Introduction of a Plea Negotiation Framework for Fraud Cases in England and Wales. 3 April 2008.
9. Norvegiya Jinoyat kodeksi / Tarjimon A. Karimov. - T.: Adolat, 2022. - B. 45.
10. Жамбалова С.Д. Курсовая работа по уголовному праву "Обстоятельства, отягчающие наказание" Новосибирск - 2010.